

## **6-laboratoriya mashg'ulot: Diduragay irsiylanishga doir masalalar yechish.**

Agar chatishtirishda ishtirok etgan ota-onas organizmlar ikkita muqobil belgisi bilan farq qilsa, hosil bo'lgan organizmlar *diduragay*, uchta, to'rtta va hokazo belgilari bilan farq qilsa *poliduragay* deb nomlanadi. Diduragay va poliduragaylarda ham belgilarning to'liq va oraliq holda nasldan-naslga o'tish kuzatiladi. Agar birinchi avlod duragaylar o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da diduragay chatishtirishda to'rtta fenotipik sinf hosil bo'lib, ular 9:3:3:1 nisbatda ajraladi. Bu nisbat monoduragaylarda belgilar nasldan-naslga to'liq o'tishida  $F_2$  fenotip bo'yicha hosil bo'lgan 3:1 nisbatning kvadrati, ya'ni (3s : 1ya) x (3t:1b) o'zaro ko'paytmasi tufayli hosil bo'ladi.

Genotip bo'yicha diduragaylarning ajralishi 1:2:2:4:1:2:1:2:1 nisbatda bo'ladi. U monoduragaylarning to'liq irsiylanishida  $F_2$  genotip bo'yicha hosil bo'lgan 1:2:1 nisbatning kvadrati, ya'ni ( $1AA : 2Aa : 1aa$ )  $\times$  ( $1BB : 2Bb : 1bb$ ) o'zaro ko'paytmasi natijasidir. Triduragaylarning  $F_2$  da fenotip bo'yicha xilmalligi 27:9:9:9:3:3:3:1 nisbatda bo'lib, u monoduragaylarning  $F_2$  da fenotip bo'yicha ajralishi, ya'ni (3s:1ya) x (3t:1b) x (3q:1oq) ko'paytmasidan kelib chiqadi. Belgilarning oraliq holda nasldan-naslga birilishi esa fenotipik sinflar soni genotipik sinflar soniga mos bo'ladi. Di va poliduragaylar Mendelning uchinchi qonuni—*juft belgilarning bir-biridan mustasno holda nasldan-naslga berilish qonuni* asosida vujudga keladi.

Diduragay va polidurgaylarda belgilarning nasldan-naslga berilishi bo'yicha mashqlar bajarish va masalalar yechish uchun o'kuvchilar, talabalar a) fenotipik radikal, diduragay, poliduragay, fenotipik sinflarni; b) Mendelning belgilarning bir-biridan mustasno ravishda nasldan-naslga o'tishiga doir uchinchi qonunini; v) uning sitologik asoslari mazmunini; g) diduragay va poliduragaylarni genotipi, fenotipini va ularni Pennet kataklariga joylash prinsipini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.


**Masala.** Bug'doyda boshoqning qiltiqsizligi (A) qiltiqlilik (a) ustidan, qizil rang (B) oq rang (b) ustidan dominantlik qiladi.

**Mazmuni.** Quyidagicha chatishtirish natijasida hosil bo'lgan duragaylarning genotipini va fenotipini aniqlang:

a) P  $AaBb \times Aabb$       b) P  $AaBb \times aabb$

Masalaning birinchi qismini yechamiz.


Yechish:



Endi  $F_1$  uchun Pennet katagini chizamiz. Ko'rinib turibdiki, urug'chi organizm 4 xil, changchi organizm 2 xil gameta hosil qiladi, ya'ni  $4 \times 2 = 8$ . Binobarin, Pennet katagi 8 ta bo'lishi zarur.

| $\text{♂}$ | $\text{♀}$ | $AB$                   | $Ab$                | $aB$                   | $ab$                |
|------------|------------|------------------------|---------------------|------------------------|---------------------|
| $Ab$       |            | q-siz, qizil<br>$AABb$ | q-siz, oq<br>$AAbb$ | q-siz, qizil<br>$AaBb$ | q-siz, oq<br>$Aabb$ |
| $ab$       |            | q-siz, qizil<br>$AaBb$ | q-siz, oq<br>$Aabb$ | q-li, qizil<br>$aaBb$  | q-li, oq<br>$aabb$  |

Natija.  $F_1$  da fenotip bo'yicha 3:3:1:1, genotip bo'yicha 1:1:1:2:2:1 nisbatda ajralish ro'y beradi. Endi masalaning ikkinchi qismini yechamiz.



$F_1$  duragayini Pennetning 4 katagiga sig'dirsa bo'ladi.

| $\text{♂}$ | $\text{♀}$ | $AB$                   | $Ab$                | $aB$                  | $ab$               |
|------------|------------|------------------------|---------------------|-----------------------|--------------------|
| $ab$       |            | q-siz, qizil<br>$AaBb$ | q-siz, oq<br>$Aabb$ | q-li, qizil<br>$aaBb$ | q-li, oq<br>$aabb$ |

Natija.  $F_1$  da fenotip va genotip bo'yicha 1:1:1:1 nisbatda ajralish ro'y beradi.

## Mustaqil yechish uchun masalalar

1) Pomidor mevasining yumaloq shakli (*A*) noksimon shakli (*a*) qizil rangi (*B*) sariq rangi (*b*) ustidan dominantlik qiladi? Tubandagi genotipli pomidorlar qanday gametalar hosil qiladi.

- a) *AABB*; b) *AaBB*; v) *aaBB*; g) *AABb*; d) *AaBb*; e) *Aabb* j) *aabb*.

2). Quyidagicha genotipli pomidorlar mevasining shakli rangini aniklang:  
a) *aaBb*; b) *AaBb*; v) *AaBB*; g) *aaBB*; d) *AABb*; e) *Aabb* j) *Aabb*; z) *aabb*.

3. G’o’zaning hosil shoxi cheklanmagan (*S*) va cheklangan (*s*), gultojibarglari sariq limon rang (*U*) va och sariq (*u*) bo’ladi. Quyidagi genotipli o’simliklardan qanday gametalar hosil bo’ladi?

- a) *Ssuu* × *ssUU*; b) *SsUu* × *SSUU*; v) *SSUU* × *ssuu*

Genotiplari quyidagicha bo’lgan o’simliklarning fenotipini aniqlang:

- a) *SsUU* × *SSUu*; b) *SsUu* × *ssUU*.

4. Odamda ko’r bo’lishning ikki turi uchrab, ularning har biri retsessiv gen orqali nasldan-naslga o’tadi. Mazkur retsessiv genlar har xil xromosomalarda joylashgan;

a) agar ota-onada ko’rlikning bir turi bilan kasallangan bo’lsa, bu oilada bolalarining ko’rish qobiliyati qanday bo’ladi?

b) agar ota-onada gomozigota holda ko’rlikning har xil turi bilan kasallangan bo’lsachi?

5. Normal eshitadigan, birining sochi to’lqinsimon, ikkinchisiniki silliq bo’lgan ota-onadan birinchi farzand kar, silliq sochli bo’lib, ikkinchi farzand normal eshitadigan, to’lqinsimon sochli bo’lib tug’ildi. Agar to’lqinsimon soch silliq soch ustidan dominantligi va karlik retsessiv belgi ekanligi ma'lum bo’lsa, shu oilada keyingi farzandlarning kar, to’lqinsimon sochli bo’lib tug’ilish ehtimoli qanday?

6. G’o’zaning hosil shoxi cheklanmangan (*C*), gultojibarglari sariq—limon rangdagi (*U*) formasi hosil shoxi cheklangan (*c*), gultojibarglari och sariq rangli (*u*) formasi bilan chatishtirilganda, 1/4 qism cheklanmagan hosil shoxi, gultojibarglari sariq-limon rangli, 1/4 qism cheklangan hosil shoxi, gultojibarglari sariq-limon rangli, 1/4 qism cheklanmagan hosil shoxi, gultojibarglari och sariq rangli va 1/4 qism cheklangan hosil shoxi, gultojibarglari och sariq rangli o’simliklar olingan. Chatishtirishda ishtirok etgan ota-onada formalarning genotipini aqiqlang.

7. No’xatning uzun poyali, oq gultojibargli formasi kalta poyali, qizil gultojibargli formasi bilan chatishtirilgan,  $F_1$  da 120 ta uzun poyali, qizil gultojibargli,  $F_2$  da 720 ta o’simlik hosil bo’ldi:

- a)  $F_1$  necha xil genotipga ega bo’ladi?  
b)  $F_1$  necha xil gameta hosil qiladi?

- v)  $F_2$  dagi o'simliklarniqtan nechtasi uzun poyali, qizil gultojibargli bo'ladi?  
g)  $F_2$  dagi o'simliklarning nechtasi uzun poyali, oq gultojibargli bo'ladi?

8. Tarvuzning mevasi yumaloq shakli uzunchoq shakli ustidan, yashil po'choqlisi chipor po'choqlisi ustidan dominantlik qiladi. Uning yumaloq chipor formasi bilan uzunchoq yashil formasi chatishtirilgan.

$F_1$  da 120 ta,  $F_2$  da 960 o'simlik hosil bo'ldi:

- a) ota-onaning,  $F_1$  va  $F_2$  ning genotipini va fenotipini aniqlang;  
b)  $F_2$  necha xil fenotip hosil qiladi?  
v) ular orasida yumaloq yashil, uzunchoq chipori nechta?

9. Odamda o'ng qo'lni ko'p ishlatish va uzoqni ko'raolmaslik dominant belgi, chap qo'lni ko'p ishlatish va normal ko'rish retsessiv belgi hisoblanadi. Uzoqni yaxshi ko'ra olmaydigan chapaqay erkak, ikkita belgisi bilan normal gomozigota ayolga uylalandi:

- a) ota necha xil gameta hosil qiladi?  
b) farzandlar qanday genotipga ega bo'lishi mumkin?  
v) ayolning 8 ta farzandidan nechtasi normal ko'radigan, o'naqay bo'lishi mumkin?  
g) farzandlarining nechtasi uzoqni ko'ra olmaydigan, o'naqay bo'ladi?

10. Qovoq mevasi etining oq rangi ( $B$ ) sariq rangi ( $b$ ) ustidan, mevasining diskasimon shakli ( $D$ ) yumaloq shakli ( $d$ ) ustidan dominantlik qiladi. Quyidagicha genotipga ega formalar o'zaro chatishtirilsa qanday natija olinadi?

- a)  $BbDd \times bbdd$   
b)  $BbDD \times Bbdd$   
v)  $Bbdd \times bbDd$

11. No'xat o'simliklarda donning sariq rangli ( $A$ ) yashil ranglisidan (a) tekis belgisi ( $B$ ) bujur belgisidan (b) to'liq dominantlik qiladi. Tubandagi genotiplarning don rangi va formasi qanday bo'ladi?

$AABB$   $AaBb$   $aaBB$   $AAbb$   $AABb$

12. No'xatning don rangi va shakli bo'yicha digeterozigota xili don rangi va shakli bo'yicha retsessiv belgili xili bilan chatishtirilsa ularning nasli qanday rangda va shaklda bo'ladi?

13. No'xatning  $Aabb$  (sariq burushgan)  $aaBb$  (yashil tekis) xili bilan chatishtirilsa nasldagi o'simliklarning genotipi qanday bo'ladi?

14. Qovoqlarning oq rangli yumaloq shaklli xili o'zaro chatishtirishdan yigirmata o'simliklar olindi. Ularning 10 tasi oq rangli yumaloq shaklli, 10 tasi

sariq rangli uzunchoq shaklli bo'ldi. Agar  $F_1$  qolgan urug'lari unib chiqsa ulardan qanday mevali qovoqlar rivojlanadi?

15. Xo'jalikda yetishtirilgan pomidorlardan 15 tonna silliq qizil, 6 tonna tukli qizil pomidor terib olindi. Agar boshlang'ich material digeterizigota bo'lsa tukli sariq pomidor qancha bo'ladi?

16. Xlamidomonadaning yashil rangli ko'zchasi bor xili sariq rangli ko'zchasi yo'q xili bilan chatishtirilgan edi.  $F_1$  avlodda sariq rangli ko'zi yo'q, sariq rangli ko'zi bor, yashil rangli ko'zi yo'q, yashil rangli ko'zchasi bor xlamidomonadalar olindi. Chatishtirishda qatnashgan xlamidomonadalar va ularning avlodini genotipini aniqlang.

17. Pomidorning qizil, ko'p uyali mevali xili bilan qizil ikki uyali mevaga ega xili chatishtirishdan olingan avlodda 22 o'simlik qizil ikki uyali, 19 o'simlik qizil ko'p uyali mevaga, 21 sariq ikki uyali 23 sariq ko'p uyali mevaga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Chatishtirishda qatnashgan dastlabki pomidorlarning genotipi qanday bo'lgan. Ular avlodida yana qanday o'simliklar rivojlanishi mumkin? (Pomidorda mevaning qizil rangi dominant sariq rangi retsessiv, mevasining ikki uyaligi dominant, ko'p uyaligi retsessiv sanaladi).

### **Mustaqil ravishda masala tuzish**

1. Pomidorning mevasi .... rangli shaklli formasi bilan . . . rangli, . . . shaklli formasi chatishtirilgan.  $F_1$  da mevasi . . . rangli, .... shaklli, 25% . . . rangli . . . shaklli, 25% . . . rangli, . . . shaklli, 25% . . . rangli, . . . shaklli mevaga ega formalar hosil bo'ladi. Ota-onaning va  $F_1$  duragaylar genotipini aniqlang.
2. Nikohdan o'tgan yigitning sochi ... rangli, labi .... ,qizning esa sochi .... rangli, labi .... Oilada tug'ilgan farzandlar sochining rangi va labining qalinligi qanday bo'ladi?